



SAMARQAND ZIYOLILARINING IJTIMOIIY VA AXLOQIIY QARASHLARI

Xayitboyeva Ozoda Erkinjon qizi

*Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti Tarix fakulteti 2- kurs magistr talabasi
xayitboyevaozoda329@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand ziyolilarining ijtimoiy va axloqiy qarashlari tarixiy va zamonaviy kontekstda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Samarqandning ko‘p asrlik ilmiy-ma‘rifiy an‘analari, xususan, Vadud Mahmud, Mahmudxo‘ja Behbudiy hamda Hoji Muin kabi jadidlarning ilmiy va axloqiy merosi asosida shakllangan ijtimoiy tafakkur yoritiladi. Maqolada ziyolilarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ma‘naviy qadriyatlarni asrash va targ‘ib etishdagi roli, yoshlar tarbiyasiga ta‘siri hamda fuqarolik mas‘uliyati masalalari keng ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Samarqand jadidlari, milliy uyg‘onish, ijtimoiy axloq, ma‘rifatchilik g‘oyalari, ma‘naviy merosi, madaniy hayot.

Shuningdek, mustaqillik davrida O‘zbekistonda yuz bergan ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar fonida Samarqand ziyolilarining milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, bag‘rikenglik va ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini rivojlantirishdagi faoliyati tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Samarqand ziyolilarining ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, axloqiy me‘yorlarni shakllantirish va jamiyatda sog‘lom ma‘naviy muhit yaratishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Jadidlar o‘zlarining asarlaridagi ilg‘or qarashlari bilan xalqning ma‘naviy ruhiyatini ko‘tarishga harakat qildilar. Bu harakatlarning ma‘lum ma‘noda amalga oshganligini biz samarqandlik fidoiylarning amaliyotida ko‘rishimiz mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga, xususan Samarqand jadidlarining qarashlarida ijtimoiy-siyosiy, madaniy o‘zgarishlar, yangilanishlar davri bo‘lib kirdi⁵. “Tarixiy falsafiy nuqtayi nazardan milliy uyg‘onish harakatining vujudga kelishi va uning zamirida yangi ijtimoiy-siyosiy qarashlarning shakllangani bu davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotining eng muhim xususiyatlaridandir”. Jadidlarning ijodlarida Vatan va millat taqdiri, istiqboli masalalariga alohida va har qachongidan ham ko‘proq ahamiyat

⁵ Mirzoyeva N.Sh., Hakimova M.I. Behbudiya and the importance of “Nashriyoti Behbudiya” in youth education // Fan va ta‘lim integratsiyasi (integration of science and education), 2024. №2(2), 75-80.
<http://journal.uzfi.uz/index.php/ISE/article/view/127>.



qaratildi. Bu davrda Samarqand jadidlarining ijodlarida ijtimoiy-siyosiy qarashlar badiiy tarzda namoyon bo'ldi va mohiyatan yangilandi. "Ana shu yangilangan ijtimoiy-siyosiy qarashlar voqelikda aks etish tamoyillarini falsafiy tahlil qilish, ilmiy-nazariy asosda o'rganish bugungi kundagi ilm-fanning oldida turgan dolzarb vazifalardandir". Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, biz tariximizning qoralangan, buzib ko'rsatilgan sahifalarini oqlab bo'ldik, endilikda asosiy vazifa uning ilmiy asoslangan talqinini yaratishdir⁶.

Samarqand jadidlarining ijodiy faoliyatini o'rganish ma'rifatparvar ziyolilarning inson ruhiy va ma'naviy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiluvchi asarlari tahlili, yurt ravnaqiga xizmat etuvchi g'oyalaridan foydalanish bugungi kunda ham o'z ahamiyatiga egadir. Buni biz bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot doiralarida ko'rishimiz mumkin bo'ladi masalan: – "Mukammal jamiyat, unda ilm-ma'rifat va adolat ustuvorligiga doir orzular inson yaralgandan buyon u bilan hamroh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida shakllangan yangi estetik qarashlar, badiiy ijodga yangi janrlarning kirib kelishi jarayonida ham ma'rifat tushunchasi yetakchilik qildi"⁷. Shuning uchun ham, bu davrdagi milliy mafkuraviy qarashlarni tadqiq etishdan avval biz Yevropa ma'rifatchilik harakati bilan birga ularning falsafiy qarashlariga nazar tashlash lozimdir. Bu davr bilan tanishish, "bir tomondan, XVIII asr Yevropa ma'rifatchilarining asarlari arab va fors tillariga tarjima qilina boshlangani va, ikkinchi tomondan, "Turkiya, Rossiya va Yevropa mamlakatlari o'quv yurtlarida musulmon aholisi vakillarining tahsil olishi natijasida Yevropa ma'rifatchilik g'oyalari bizning hududimizga kirib kela boshlagani va jadidchilik g'oyalarining shakllanishiga muayyan ta'sir o'tkazganini aniqlash imkonini beradi"⁸. Ma'lumki, XIX-asr oxirlari hamda yangi – XX-asr boshlari musulmon sharqida ham shu kabi vaziyat yuzaga keldi. Biz tadqiqotimizning mazmunidan kelib chiqib, o'sha davrdagi tarixiy sharoitlarni ham diqqatimizdan qochirmasligimiz kerak. Binobarin, bu davrga kelib ijtimoiy tarixiy sharoit o'zgarganini ma'rifiy va madaniy inqirozni boshdan kechirayotgan bir davr edi.

Jumladan, Samarqand jadidlarining ma'naviy merosi va ularning ijodlarida tizimli namoyon bo'la boshladi. "Har bir asarda yozuvchining badiiy niyatlari asosiga quriladi. Belgilangan maqsadlar yaratilayotgan asarning shakli va mazmunini tayin etishida muhim o'rinni tutadi. Badiiylikning

⁶ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 7-жилд. 1999. – 153-бет.

⁷ Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 3-11.

⁸ Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Тошкент: Академия, 2004. – Б. 10.



mukammallikni anglatuvchi mezonlardan biri bu mazmun va shakl birligidan tashqari u har ikkisinin ijodkor idealligi bilan nurlangan uyg'unligi ham mavjuddir"⁹. Umuman olganda, XIX-asrning oxiri – XX-asrning boshlaridagi ma'rifatparvarlik va ozodlik mafkurasining bo'yog'i quyuqligi, ruhiy kechinmalari, qalbiy evrilishlaridan ko'ra ko'proq siyosiy mazmuni bilan ham alohida holda ajralib turadi. "Uzun tartibsizliklarning orqasida buzulgan, bitkan va o'lkamizning oqibat o'ldirguvchi bir istibdod idorasi ostida ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi pastlanish adabiyot tariximizda ham ochiq seziladi. Chunki milliy tariximizning hech bir davrida iqtisodiy va ijtimoiy holimiz bu qadar pastlangan davri yo'qdir"¹⁰, deb ta'kidlaydi.

Vadud Mahmudning mazkur qarashlarida ijtimoiy muammolarning bir qator ko'pligi va o'sha davrning ijtimoiy hayotiga naqadar muhim ta'sirini isbotladi. Zero, bu davr millatimiz boshdan kechirgan ijtimoiy-siyosiy muammolarini dolg'ali voqealar talqini hamdir. O'tmish g'oyalaridan farqli o'laroq milliy uyg'onish davri g'oyalari ma'rifat g'oyalaridan amaliy harakatga aylandi. Vadud Mahmudning quyidagi maqolasi "Navoiygacha turk adabiyoti"da aynan Navoiy yashagan zamonni Markaziy Osiyoning "oltun davri"¹¹dir, – deb ataydi. Samarqand jadidlarining ma'naviy merosida ularning qarashlarida jamiyat muammolarning dolzarbligi keng holatda zamonaviy ko'rinishini kasb etib bordi. Jumladan, jadid Abdulla Avloniyning ideali maktabi, ma'rifat tushunchalariga bevosita bog'liq. Uning "Oila munozarasi" she'rida usha davrning muammolari ziddiyatlari bevosita falsafaning qarama-qarshiligi va ko'rashi qonunida ifodalanadi. She'rdagi yangilikdan xabardor bo'lgan va maktabni targ'ib qiluvchi shaxsning – er obrazida ijodkorlik idealida belgilangan. "Bir necha yildan beri deydi, adabiyot otida bir-ikki she'rlar majmuasidan boshqa nimalar chiqdi? Bular bilan adabiydagi ishlarimiz tuzukroq boradir, deyishimiz mumkinmi? Albatta-ki yo'q"¹², – deya ta'kidlaydi. Xo'sh, Vadud Mahmudning qarashlarida jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi ma'rifatparvarlar va xalqning taqdiridan qayg'urib yozgan fikrlaridan ko'rinib to'ribdiki, ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarning rivoji uchun Fitrat aytmogchi bo'lganlaridek "singirlarni o'ynatib, qonni qaynatadigan" bir qator asarlar darkor.

O'z davrida teatrning ahamiyatini va milliy ongga ta'sirini yaxshi anglagan jadid ma'rifatparvarlari uni "ibrat oynasi", – deb atadi. Teatr milliy

⁹ Саримсоқов Б. Адабиётда шакл ва мазмун муносабатларининг айрим муаммолари // ЎТА, 1997. – № 6. – Б. 11.

¹⁰ Вадуд Маҳмуд. (Вадуд Маҳмуд. Турк шоири Ажзий // Инқилоб. 1924. - №11-12.

¹¹ Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 30.

¹² Шу китоб. – Б. 102.



taraqqiyotning birinchi shartlaridan ekanligi to'g'risida Mahmudxo'ja Behbudiyning ("Tiyotr nadur?") maqolasida e'lon qildi. Subyektning o'rganilayotgan bir obyektga munosabatining mavjud, mohiyatga qarata fikrlarida ijobiy, yoki salbiy yondashuvi yuzaga keladi. Uni ijobiy qoniqtirmayotgan voqeliklarga, jamiyat va insonning borlig'iga nisbatan nafrati mazkur asarda fojivaviy yoki hajviya yo'li orqali ifodalanishi mumkin. Bu "Padarkush" asaridagi boyning harakati, ya'ni "xambozasini ko'rib xalqning beto'xtov kulishi"ning sababi shunda. Mazkur obrazning antipodi bo'lgan – Domulla hamda Ziyolining ilog'or fikri bir nuqtada tutashdi, shuningdek, yozuvchining ideali esa – zamonasining yoshlarini tarbiyalash, millatning ravnaqi yo'lida o'z xizmati bilan ishtirok ettirishdek bir ulug'vor g'oyani ilgari so'radi¹³.

Jadidlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni isloh etishda avvalo oilalarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlashadi. Shuning uchun yoshlar tarbiyasini oshirishda axloqiy tarbiyani oiladan boshlash lozimligi haqida kuyinib yozgan. Jadidlar ijodida oila xususida o'nlab asarlar yozilganligini ko'rishimiz mumkin. Samarqand jadidlarining yorqin vakillaridan bo'lgan Hoji Muinni "Oila tarbiyasi" asari bunga yaqqol misol bo'ladi. Samarqand jadidlari, eng avvalo, o'zlarining faoliyatlarini tadrijiy rivojlanish yo'lidan olib bordi. Jadidchilik harakatining boshlanishidan ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratildi, 1914-yilgacha bo'lgan davrda asosiy faoliyat maorifparvarlik uslubida olib borildi. Undan keyingi davrga kelib rivojlanish taraqqiyoti siyosiy mustaqillik g'oyasini namoyon etib bordi.

Xulosa, shuki keltirilgan mulohazalar jadidlarning jamiyatni yangi bosqichga ko'tarish yo'lida mavjud muammolar ustida islohotlar kerakligini olg'a surgani, bugungi kundagi ayrim muammolarimizning salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham ko'rsatib bermoqda. Demak, jadidlarning aytib o'tgan fikrlarini milliy falsafamizning tarixdagi innovatsion g'oyalar rivojiga, yangilikka tenglashtirishimiz mumkin. Samarqand jadidlarining ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari jadidchilik harakatining umumiy ma'rifatparvarlik konsepsiyasi doirasida shakllangan bo'lib, ular o'z davrining ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkurini ifoda etadi. Jadid ziyolilarining asosiy maqsadi xalqni ilmiy bilim va zamonaviy tafakkur asosida tarbiyalash, shu orqali millatning ijtimoiy-siyosiy ongi va madaniy darajasini yuksaltirishdan iborat edi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

¹³ Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент: Академия, 1999. – Б.13-14.



1. Mirzoyeva N.Sh., Hakimova M.I. Behbudiya and the importance of “Nashriyoti Behbudiya” in youth education // Fan va ta’lim integratsiyasi (integration of science and education), 2024. №2(2), 75-80.
<http://journal.uzfi.uz/index.php/ISE/article/view/127>
2. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 7-жилд. 1999. – 153-бет.
3. Жабборов Н. Маърифат надир? – Тошкент: Маънавият, 2010. – Б. 3-11.
4. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Тошкент: Академия, 2004. – Б. 10.
5. Саримсоқов Б. Адабиётда шакл ва мазмун муносабатларининг айрим муаммолари // ЎТА, 1997. – № 6. – Б. 11.
- Вадуд Маҳмуд. (Вадуд Маҳмуд. Турк шоири Ажзий // Инқилоб. 1924. - №11-12.
6. Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2007. – Б. 30.
7. Шу китоб. – Б. 102.
8. Алимова Д.А., Рашидова Д.А. Маҳмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. – Тошкент: Академия, 1999. – Б.13-14.